

Qabul qilindi: 03.03.2025

Chop etildi: 30.04.2025

UDK: 1.172+821.512.121

BERDAQ FALSAFASIDA INSON BARKAMOLLIĞI

VA AXLOQIY QADRIYATLAR MASALASI

Ernazarova Sapura Keulimjayevna, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE ISSUE OF HUMAN PERFECTION AND MORAL VALUES IN BERDAK PHILOSOPHY

Ernazarova Sapura Keulimzhaevna, Acting Associate Professor of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

ПРОБЛЕМА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВА И НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФИЛОСОФИИ БЕРДАКА

Эрназарова Сапура Кеулимжаевна, и.о. доцента Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, доктор философии по философским наукам (PhD)



<https://orcid.org/0009-0002-7063-4634>

e-mail:
ernazarovasapura3@gmail.com

Annotatsiya: Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri Berdaq falsafasida axloqiy tushunchalar o'ziga xos tarzda tahlil qilingan. U barkamol inson g'oyasini o'z zamonasida diyonatli va ilmi inson qiyofasida tasavvur qilgan. Ushbu maqolada Berdaq qarashlarida insonni barkamolikka yetishuvi axloqiy qadriyatlar orqali yuzaga kelishining falsafiy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inson, inson barkamolligi, axloqiy qadriyatlar, komil inson, o'zini anglash.

Abstract: In the philosophy of the great poet of the Karakalpak people Berdakh, moral concepts are analyzed in a unique way. He envisioned the idea of a perfect person in the image of a religious and educated person of his time. In this article, the philosophical aspects of the emergence of human perfection through moral values in Berdakh's views are analyzed.

Key words: human being, human perfection, moral values, perfect human being, self-realization.

Аннотация: В философии великого поэта каракалпакского народа Бердаха нравственные понятия анализируются по-своему. Он представлял идею совершенного человека в образе благочестивого и образованного человека своего времени. В данной статье анализируются философские аспекты достижения человеком.

Ключевые слова: человек, человеческое совершенство, моральные ценности, совершенный человек, самореализация.

KIRISH. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi va komil inson masalasiga yangicha yondashuv yo'lga qo'yilmoqda. Bu ta'lim-tarbiya tizimining bir-biri bilan uzviy bog'liqligida. Tarixiy adabiyotlarimizning aksariyatida jamiyat taraqqiyoti har tamonlama yetuk, barkamol insonlar bilan belgilanishi aks etgan. Shu nuqtayi nazardan

qaraganimizda komil inson, barkamol avlodni tarbiyalash jamiyatimiz oldidagi dolzarb vazifa ekanligiga iqrar bo'lamiz.

Bu masala qoraqalpoq xalqining buyuk mutafakkiri Berdaqni ham befarq qoldirmagan. Berdaq falsafasida inson barkamolligi va axloqiy qadriyatlar masalalarga alohida e'tibor qaratgan.

Buning sababi, XIX asrda yurtdagi adolatsizlik, insoniy qadriyatlarning oyoqosti qilinish, jamiyatdagi tengsizlik muammolari edi.

Berdaqning ilm va kasb-hunar egallash, halol mehnat qilib, jamiyatga naf keltirish to'g'risidagi fikrlari ibratli bo'lib, hozirgi kunlarda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Bu fikrlar jamiyatimizda islohotlar bo'layotgan bir davrda o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda, turli kasb egalarining o'z ishiga jiddiy va halol munosabatda bo'lishida, o'z kasbiga insof, diyonat, adolat yuzasidan yondashishlarida foydasi tegishi aniq.

Berdaq falsafasidagi ilg'or axloqiy qadriyatlar, tamoyillar ijobiy qahramonlar obrazlarida keng tasvirlangan. Bundan tashqari mutafakkirning asarlarida jamiyatdagi turli toifalarning axloqiy-ma'naviy qiyofasi yoritilgan. Ayniqsa, uning falsafasidagi keng dunyoqarash asosida yaratilgan bir necha asarlari, jumladan "Xalq ushın", "Bolam", "Izlar edim" qo'shiqlari va "Ahmoq podsho" dostonlarida ham aks etgan. Ularda ota-onaga, yaqin do'stlarga muhabbat, qanoat, himmat, saxiylik kabi tushunchalar tahlilini kuzatamiz. Berdaq axloqiy ta'limotining asosiy mazmuni inson ma'naviy-axloqiy masalalarini o'z ichiga qamrab olgan.

Berdaq barkamollik g'oyasini o'z zamonasida diyonatli va ilimli inson qiyofasida tasavvur qilgan. Berdaq aqlli inson, komil inson o'rtasidagi munosabatlar dialektikasi to'g'risidagi qarashlari axloqiy qadriyatlar masalasi bilan uyg'unlashgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Berdaq fikricha, inson axloqiy jihatdan to'g'ri fikrli bo'lib tarbiyalansa, odam ma'rifat va bilimga qanchalik intilsa, jamiyat hayotining ma'naviyati shunchalik yuksalishini ta'kidlaydi. Shu sababli ham Berdaq "Aqli komil, ilmi zo'r, bilimli el bo'lmaydi xor", deb komillikni orzu qilgan odamni qadrlagan, bunga qarshilik qilganlarni qoralagan[2.41].

Berdaq har qanday vaziyatda yoshlar ilm egallashi zarurligini va buning insoniyat uchun foydasi ko'p ekanligini "Men ma'rifat izlar edim" degan satrlarida ko'ramiz. Chunki u o'z atrofidagi mavjudlikni bilishga faqatgina inson zoti qodir ekanligini ta'kidlaydi.

Berdaq qarashlarida insonning o'zligini bilishi barcha masalalardan ustun turadi. U inson o'zini bilsa, Haqni biladi, insofga keladi, degan g'oyani ilgari surgan va shior qilib olgan. Shoir "Barchani yaratgan qodir xudoyim, bersang bu bandaga, haqlik yo'lini ber", deydi. Har bir odam johillikdan qutilishi lozim, faqat mol-dunyo tashvishi bilan yashamasdan, haq va haqiqatni anglab olishga harakat qilishi kerak, degan tasavvufiy g'oyalarni o'zida aks ettiradi [2.21].

"Mehnat – boylikning otasi, yer – uning onasi", deydi donishmandlar. Berdaq insonning foydali mehnat bilan shug'illanishi nafaqat jamiyatdagi va oiladagi barqarorlik, farovonlikning garovi ekanligini ta'kidlaydi. U mehnatsiz topilgan dunyoni qoralab, "Miynetsiz dúnyo izleme, Jandı otqa jag'adursañ" (Mehnatsiz dunyo izlama, Jonni o'tga yoqadursan), deydi. Bu naqshbandiya tariqatining "Dil ba yor-u dast ba kor", ya'ni "Diling Allohda bo'lsin-u qo'ling mehnatdada bo'lsin" shioriga to'la muvofiqdir.

Tarixdan malumki, Sharq mutafakkirlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarida "odil shoh" timsolini yaratganlar. Masalan, Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida hukmdor 12 fazilatga ega bo'lishi kerakligini aytib o'tadi [4.160].

Berdaq xalq g'amini o'ylaydigan, xalqning farovonligini, erkinligini ta'minlaydigan, adolatli, ma'rifatli podsho, insofli amaldorlar kerak ekanligi, hukmdorlar egallashi zarur bo'lgan fazilatlar to'g'risida:

Xalqqa nazar solmasa,
Bo'stonlik, joylik qilmasa,
Odillik bilan turmasa,
Uni boshchi deb kim aytar? [2.86]

Bu satrlardan ma'lumki, Berdaq asarlarining axloqiy mazmuni falsafiy tafakkur tizimida adolatlilik, haqiqat, xalqparvarlik jamiyat kelajagi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda adolatsizlik, jaholatni tugatishda substansional asos ekanligini ko'ramiz.

Berdaqning talqinida adolat bosh masala bo'lsa, insonning boshqa fazilatlarini adolatning xizmatkorlari deb hisoblaydi.

Buyuk mutafakkir Attor Olam va Odam munosabati, hayot mazmuni, insonning

xarakterining o'zgaruvchanligi, fazilat va illatlar, yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg'on, adolat va adolatsizlik, muhabbat va nafrat, diyonat va xiyonat, halol va harom, savob va gunoh kabi azaliy masalalarni, inson kamoloti uchun o'zini mas'ul deb bilgani uchun uning asarlari Berdaqni o'ylantirganini quydagi satrlarida ko'ramiz:

Bedil Attar bidayati,
Tákirarlap atirdim ta'ndi,
Zaman qıynap tur adamdi,
Hidayattı izler edim [1.117].

Shoir Attorning bu dunyo o'tkinchi ekanligi haqidagi "Bu dunyo o'ylakim, daryoda ko'pik" degan iborasini tasdiqlab, "Bul dunyo panydur, payani joqtir", deb undan g'oyaviy ta'sirlanganligini ko'ramiz [3.127].

Berdaq tarkidunyochilikda kecha-yu kunduz tinmasdan narigi dunyoni o'ylashni qoralab, odamlarni bu dunyoning lazzatlaridan bahramand bo'lishga chaqiradi: "... Bekor qirq kun qayg'u-hasrat chekkandan, Tan sog'liqda bir kun shodlik yaxshiroq!" deydi [2.12]

Yaxshilik haqida eng qadimgi davrdagi falsafiy qarashlarni Zardushtiylik dinida uchratamiz. Unda yaxshilik xudosi Axuramazda, yomonlik xudosi Axrimanning odamzodga bo'lgan yomonligini qaytarib, bandalaridan "yaxshi niyat, yaxshi so'z, yaxshi ish"ni e'zozlashni talab qiladilar.

Yaxshilik tushunchasiga falsafiy va axloqiy jihatdan yondashgan Berdaq bobomiz o'zining "Yaxshiroq" nomli she'rida xalqni yaxshilik qilishga chorlaganini quydagi she'r satrlarida ko'ramiz:

"Jaw bag'ınıp, eki qolın qawsırsa,
Kózdı alartqannan izzet jaqsıraq".
(Yov bo'ysunib, ikki qo'lin qovshirsa,
Ko'z olaytiringandan izzat yaxshiroq!) [2.87].

Qadimgi yunon faylasufi Arastu saxiy deganda, "kerakli narsalarga, kerakli vaqtda va keraklicha sarflovchi odam"ni tushunardi [5.123].

Berdaq nazarida, saxiylik, insonning nodir fazilati bo'lib, u kishilarning boshqa olijanob fazilatlarini bo'lmish odamiylik, mehr-shafqat, insonparvarlik, sofdillik, muruvvatlilik va boshqalar bilan chambarchas bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Berdaq falsafasida qoraqalpoq xalqi ijtimoiy hayotining aks

etishi, xalq og'zaki ijodiyoti, qoraqalpoq xalqining diniy e'tiqodi, ilohiyot falsafasi, ularning dialektik uyg'unligi ochib berilgan. Shu bilan birgalikda Berdaq g'oyalari asosida bugungi kunda inson barkamolligi va axloqiy qadriyatlar masalasi ko'rsatib o'tilgan.

Berdaq ijodining kuchi uning chin xalqchilligida, xalq hasratiga, xalq istagiga mosligida. O'z yurtini, o'z xalqini sevgan, butun hayotini xalqqa xizmat qilish uchun bag'ishlaganligida. Buni shoir o'z she'riy satrlarida "Mard yigitlar xalq ishiga shay turar", deb tasdiqlaydi.

Insonlar hayotida ilg'or dunyoqarashning buyuk ahamiyati haqida Berdaqning nazariy fikrlari inson uchun yuksak ma'naviyat zarurligi g'oyasi bugungi Yangi O'zbekistonninng taraqqiyot strategiyasida belgilab qoyilgan "Inson qadri uchun" tamoyili ustuvor hisoblanayotgan sharoitda ham juda qimmatlidir. Modomiki, Berdaq asarlarida shaxs kamolti, jamiyat va shaxs masalalari alohida o'rin egallaydi. Berdaq asarlaridagi ilg'or axloqiy tamoyillar ijobiy qahramonlar obrazlarida keng ravishda tasvirlanadi.

Berdaq axloqiy qadriyatlar oilada shakllanishini ko'rsatadi. U odam bolasi uchun eng buyuk va qadrli insonlar, ya'ni ota-onani e'zozlash – axloqning eng asosiy belgisi ekanligini uning "Balam" (Bolam) nomli she'rida ko'ramiz:

Ota-onangni doim siyla,
O'lganingcha yaxshi so'yla,
Mol topsang ipakka bela,
O'sishingga yaxshi, bolam.

Demak, she'rda ota-onani e'zozlash va ularga mehribon bo'lish, har bir o'g'il-qizning asosiy vazifasi sifatida ko'rsatilgan.

Berdaqning bunday didaktik nasihatlariga boy she'rlari, keng ko'lamli va ijtimoiy-ma'naviy nuqtayi nazardan har bir insonga, ayniqsa, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda amaliy yordam beruvchi asarlardir. Binobarin, farzand ota-onani rozi qilmay turib, hech bir ishida baraka bo'lmasligini ko'rsatib o'tadi.

Berdaqning bizga qoldirgan boy merosi barkamol avlod, komil inson tarbiyasida ibrat maktabi, tuganmas boy xazina bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Berdaq XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning eng xarakterli nuqtalarini o'z asarlarida tahlil qilgan. Ulardan xulosa chiqargan, ijtimoiy hayotning to'liq bahosini belgilab bergan, xalq og'zaki ijodi va o'z davridagi yozma adabiyoti, xalqning falsafiy tafakkur tarzini ham mustahkam bog'langan dono fikrlari bilan to'la badiiy asarlar yaratdi.

Berdag axloqiy ta'limotining asosiy mazmuni inson ma'naviy-axloqiy masalalarini o'z ichiga qamrab olgan. Shuning uchun mutafakkirning boy falsafiy-axloqiy ta'limoti va qarashlari hozirgi kunda ham yoshlar ma'naviy dunyosini boyitishda va ularning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri.

Buyuk mutafakkir, faylasuf, XIX asr ijtimoiy-axloqiy tafakkurining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Berdaq haqidagi ma'lumotlardan kengroq foydalanish asosida barkamol avlodni tarbiyalash va yoshlarning bilimini yuksaltirishda foydalanish mumkin.

XULOSA. Berdaq jamiyat farovonligi bilan shaxs axloqiy kamoloti dialektik, uzviy birlikda, deb

hisoblaydi. Uning dunyoqarashidan jamiyatni farovon qilish uchun odamlarni yaxshilikka, yaxshi xulq-atvor asosida tarbiyalash lozim, degan ma'rifiy fikrlar keng o'rin olgan. Ushbu tushunchadan kelib chiqadigan xulosa shuki, odamni tarbiyalash uchun insonga xos barcha xislatlarni, ulardagi ma'naviy jarayonlarni bilish kerak. Shu bois tarbiyaning obyekti bo'lgan odamning ma'naviy jarayonlari haqidagi fikrlari katta ahamiyatga molikdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бердақ таңламалы шығармалары. –Н.: Қарақалпақстан, 1987. –Б.117.
2. Бердақ. Сайланды шығармалары. (Қайта басылым). –Н.: Билим, 2019. –Б. 12.
3. Фаридиддин Аттор. Ҳикматлар. –Т.: О'zbekiston, 2012. – Б. 127.
4. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. -Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 159-160.
5. Арасту. Ахлоки кабир. Русчадан Махкам Махмуд таржимаси. - Т.: Янги аср авлоди, 2004.

